ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

YOZDONQULOVA OZODA ZOKIRJON QIZI
Jadid lirikasida tarixiy antroponimlar asosida shakllangan
antonomaziyalarning lingvopoetik va konseptual xususiyatlari 116

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 120

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 127

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 131

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 136

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 139

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 143

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 146

G'AYRATBEK OYBEK O'G'LI XOLBUTAYEV
Folklorshunoslikda latifa janrini tasniflashning nazariy asoslari 149

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 154

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JADID LIRIKASIDA TARIXIY ANTROPONIMLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN ANTONOMAZIYALARNING LINGVOPOETIK VA KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Yozdonqulova Ozoda Zokirjon qizi
e-pochta: o.yozdonqulova@dtpi.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-7082-0248

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati o'zbek xalqining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar yasagan muhim tarixiy jarayon hisoblanadi. Mazkur davr adabiyoti milliy uyg'onish g'oyalarining badiiy ifodasi sifatida shakllanib, til va uslub nuqtayi nazaridan o'ziga xos taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Jadid ijodkorlari milliy ongni uyg'otish, xalqni ma'rifat va taraqqiyot sari yetaklash maqsadida badiiy tasvir vositalaridan keng foydalandilar. Ana shunday vositalardan biri antonomaziya hisoblanadi.

Antonomaziya qadimiy poetik figura bo'lib, ma'lum bir shaxs, voqea yoki hodisaning nomi orqali boshqa bir tushuncha, sifat yoki belgini ifodalashga xizmat qiladi. U lingvopoetik nuqtayi nazardan badiiy matnning semantik qatlamini boyitish, ekspressivligini kuchaytirish hamda kitobxon ongida qo'shimcha assotsiativ maydon hosil qilish vazifasini bajaradi. So'nggi yillarda tilshunoslikda antropotsentrik paradigma rivojlanishi natijasida inson omili bilan bog'liq til birliklariga qiziqish kuchaydi. Xususan, antroponimlarning badiiy matndagi funksional imkoniyatlari, ularning lingvomadaniy xususiyatlari va intertekstual mohiyatini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – jadid lirikasi namoyandalari ijodida qo'llangan tarixiy antroponimlar asosidagi antonomaziyalarning leksik-semantik, lingvopoetik va konseptual xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, Cho'lpon va Abdulla Avloniy she'riyati tanlandi. Metodologik asos sifatida lingvopoetik tahlil, konseptual tahlil, pretsedent birliklar nazariyasi hamda intertekstual yondashuv qo'llanildi. Materialni tanlashda tarixiy antroponimning pretsedentlik darajasi, matndagi funksional yuklamasi va muallif individual uslubidagi o'rni inobatga olindi.

Antonomaziya masalasi jahon tilshunosligida uzoq tarixga ega. Uning ilk nazariy asoslari Aristotel va Kvintilian asarlarida uchraydi. Keyingi davrlarda bu hodisa stilistika, poetika va semantika doirasida keng tadqiq etildi. Rus tilshunosligida Yu.N.Karaulov pretsedent nomlarni milliy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning fikricha, ma'lum bir nomning pretsedentlik darajasi uning jamiyat a'zolari tomonidan qay darajada tanilishi va ma'lum axborotni uzata olish qobiliyati bilan belgilanadi[1]. V.V.Krasnix[2] esa pretsedent fenomenlarni lingvokulturologiyaning asosiy obyektlaridan biri sifatida ko'rib, ularni madaniy xotiraning muhim shakli deb talqin qiladi. Yu.S.Stepanov[3] va N.D.Arutyunova[4] ishlari madaniy kodlar va konnotativ semantikaga oid nazariy asoslarni boyitadi.

O'zbek tilshunosligida D.Xudoyberganova[5], N.Mahmudov[6], Sh.Safarov[7], M.Yo'ldoshev[8], N.Nor-

[1] Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – 264 с.
[2] Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: курс лекций. – Москва: Гнозис, 2002. – 284 с.
[3] Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Академический проект, 2001. – 990 с.
[4] Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – 2-е изд., испр. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
[5] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 44 б.; Худойберганова Д. С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015.
[6] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2012. – № 5.; Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
[7] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
[8] Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.

murodova[1] kabi olimlarning ishlari antropotsentrik tilshunoslik va lingvopoetika rivojida muhim o'rin tutadi.

Shunga qaramay, jadid lirikasi tilida uchraydigan tarixiy antroponimlar asosidagi antonomaziyalarning lingvopoetik va konseptual xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda tarixiy antroponimlar oddiy stilistik figura sifatida emas, balki kognitiv-lingvokulturologik mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Bu mexanizm ensiklopedik bilimning faollashuvi, assotsiativ maydonning shakllanishi va muallif individual niyatining yangi poetik ma'no hosil qilishi bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tilshunoslikda antroponimlar faqat nominativ birlik sifatida emas, balki muayyan madaniy axborotni o'zida mujassamlashtiruvchi lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilinmoqda. Tarixiy shaxs nomlari jamiyatning kollektiv xotirasida saqlanadigan va avloddan-avlodga uzatiladigan bilimlar majmuasini ifodalashi bilan ajralib turadi. Jadid lirikasida uchraydigan Jamshid, Iskandar, Sulaymon, Mahmud G'aznaviy, Nasimiy, Spartak kabi nomlar aynan pretsedent birliklar hisoblanadi. Ularning pretsedentlik darajasi quyidagi omillar bilan belgilanadi: a) tarixiy mashhurligi; b) milliy madaniyatdagi o'rni; d) diniy va ma'naviy qadriyatlarga aloqadorligi; e) badiiy adabiyotdagi faolligi; f) ramziy ma'no hosil qila olish qobiliyati.

Tarixiy antroponimlarning badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini quyidagi jadval asosida umumlashtirish mumkin:

Antroponim	Manbasi	Yetakchi sema	Lingvopoetik vazifasi
Jamshid	Eron mifologiyasi	adolat, qudrat	ideallashtirish
Doro	tarixiy hukmdor	saltanat	mubolag'a
Sulaymon	diniy manba	hikmat	ramziylik
Iskandar	tarixiy-afsonaviy	g'alaba	qiyoslash
Mahmud G'aznaviy	tarixiy shaxs	hukmdorlik	didaktik ta'sir
Ayoz	tarixiy-afsonaviy	sadoqat	axloqiy ideal
Nasimiy	tarixiy shaxs	fidoyilik	emotsionallik
Spartak	antik tarix	ozodlik	ijtimoiy-siyosiy ramz

Jadvaldan ko'rinadiki, antroponimning badiiy matnga kirishi bilan uning denotativ ma'nosi ikkilamchi planga o'tadi. Asosiy semantik yuk tarixiy shaxs bilan bog'liq ijtimoiy, madaniy, diniy va axloqiy tasavvurlar majmuasi hisobiga shakllanadi. Shu sababli jadid ijodkorlari tarixiy nomlardan foydalanishda nominativ vazifadan ko'ra ko'proq assotsiativ va konnotativ imkoniyatlarga tayanadilar. Natijada bitta tarixiy nom butun bir konseptual maydonni faollashtiruvchi lingvopoetik vositaga aylanadi.

Sidqiy Xondayliqiy lirikasida antonomaziya. Sidqiy Xondayliqiy she'riyatida tarixiy antroponimlardan foydalanish ko'lami jihatidan jadid lirikasi vakillari orasida alohida ajralib turadi. Uning she'riy merosida Sharq va G'arb tarixiga, Islom sivilizatsiyasiga, fors-tojik adabiyotiga, turkiy madaniyatga hamda Rossiya imperiyasi tarixiga oid yuzlab tarixiy nomlar uchraydi. Bu ijodkorning tarixiy tafakkuri kengligi va tarixiy obrazlarni badiiy tafakkur vositasiga aylantirish mahoratini ko'rsatadi.

Sidqiy Xondayliqiy tarixiy antroponimlarni tasvir ob'ekti sifatida emas, balki estetik baholash vositasi sifatida qo'llaydi. Bunda tarixiy shaxsning hayot yo'li yoki xarakteriga oid eng muhim belgi umumlashtirilib, poetik matnning semantik markaziga aylantiriladi. Masalan, *"Doro-yu Jamdin kam"* shaklidagi jumlada Jamshid antroponimi tarixiy shaxsning o'ziga emas, balki uning timsolida mujassam bo'lgan ideal hukmdor modeliga ishora qiladi. Bu yerda antonomaziya tarixiy shaxs nomining metaforik kengayishi asosida yuzaga keladi. Jamshid obrazining yadrosini adolat, qudrat, davlat, bunyodkorlik va farovonlik semalari tashkil etsa, periferik qatlamida xalq xotirasida shakllangan afsonaviy tasavvurlar mujassamlashadi. Natijada kitobxon ongida tarixiy shaxs emas, balki ideal davlat timsoli jonlanadi.

Sulaymon antroponimi ham alohida lingvopoetik vazifani bajaradi. *"Murg'u Sulaymon"* birikmasi orqali oshiqning iloji yo'qligi, armon va hijronning cheksizligi badiiy jihatdan kuchaytiriladi. Bu holatda antroponim metaforik ko'chish asosida yangi semantik yuklama kasb etadi. *Mahmud G'aznaviy va Ayoz* obrazlari orqali esa sadoqat va kamtarlik timsoli zamonaviy ma'naviy mezonlar bilan uyg'unlashtiriladi. Nasimiy obrazi e'tiqod yo'lidagi matonat, sobitlik va fidoyilik ramzi sifatida qo'llanadi.

[1] Нормуродова Н. З. Антропоцентризм художественного дискурса: монография. – Тошкент: Навоий университети, 2019. – 227 б.; Нормуродова Н. З. Художественный дискурс и языковая личность в свете актуальных лингвистических направлений // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2015.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sidqiy Xondayliqiy tarixiy antroponimlardan foydalanishda uch bosqichli lingvopoetik mexanizmni qo'llaydi: 1) tarixiy shaxs haqidagi ensiklopedik bilim kitobxon ongida faollashadi; 2) shu bilim asosida assotsiativ semantik maydon yuzaga keladi; 3) muallifning individual badiiy niyati mazkur maydon bilan uyg'unlashib, yangi poetik ma'no hosil qiladi. Shu sababli shoir she'riyatidagi tarixiy antonomaziyalarni faqat stilistik figura sifatida emas, balki murakkab kognitiv va lingvokulturologik hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Usmon Nosir lirikasida antonomaziya. Usmon Nosir tarixiy antroponimlarning semantik doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Uning ijodida Sharq adabiyoti bilan bir qatorda Yevropa uyg'onish davri va antik dunyo madaniyatiga mansub tarixiy shaxslar ham faol qo'llanadi. Dante, Petrarka, Shekspir, Vergiliy, Spartak, Kleopatra, Sezar singari antroponimlarning poetik matnga kirib kelishi jadid adabiyotining jahon madaniy makoni bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Spartak obrazi yangi semantik mazmun kasb etadi. Antik tarixda qullar qo'zg'oloni yetakchisi sifatida tanilgan Spartak shoir talqinida ozodlik, erk va mustaqillik uchun kurash konseptining poetik timsoliga aylanadi. *"Bulutlarning orasinda yurar Spartak"*[1] misrasida tarixiy shaxs real voqelik subyekti sifatida emas, balki abadiy davom etuvchi ozodlik g'oyasining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarixiy antroponim denotativ ma'nodan uzoqlashib, konseptual metafora darajasiga ko'tariladi. Usmon Nosirning "Monolog" hamda "Nil va Rim" nomli she'rlarida yigirmadan ortiq pretsendent nom mavjud. Muallif she'r g'oyasini kuchaytirishda ulardan o'rinli foydalangan. Quyidagi jadvalda ikki she'rda uchraydigan tarixiy nomlarni jadval ko'rinishida beramiz:

She'r	Pretsedent nom	Manbasi / izoh
"Nil va Rim"	Minis	Qadimgi Misr fir'avni (Menes)
"Nil va Rim"	Ramzes	Qadimgi Misr fir'avni (Ramses)
"Nil va Rim"	Kleopatra	Qadimgi Misr malikasi
"Nil va Rim"	Homer	Qadimgi yunon shoiri
"Nil va Rim"	Sezar	Rim imperatori (Yuliy Sezar)
"Nil va Rim"	Spartak	Qadimgi Rim qullar qo'zg'oloni rahbari
"Nil va Rim"	Afiotun	Qadimgi yunon faylasufi (Platon)
"Nil va Rim"	Vergiliy	Qadimgi rim shoiri (Vergiliy)
"Monolog"	Petrarka	Italyan uyg'onish davri shoiri
"Monolog"	Sapfo	Qadimgi yunon shoirasi
"Monolog"	Tasso	Italyan shoiri (Torquato Tasso)
"Monolog"	Leonora	Tasso sevgilisi (Leonora d'Este)
"Monolog"	Beatriche	Dante sevgilisi (Beatrice)
"Monolog"	Dante	Italyan shoiri (Dante Alighieri)
"Monolog"	Hamlet	Shekspir dramasidagi qahramon
"Monolog"	Ofeliya	Hamlet dramasidagi qahramon
"Monolog"	Shekspir	Ingliz dramaturgi
Monolog	Dezdemona	Otello dramasidagi qahramon
Monolog	Otello	Shekspir dramasidagi qahramon

Usman Nosirning "Monolog"[2] she'ridan olingan *"Petrarkani o'qiganim bor", "Shekspirning yo'qdir keragi"* kabi misralarda antonomaziya ijodkorning estetik pozitsiyasini ifodalovchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tarixiy antroponimlar muallifning adabiy qarashlarini ifodalash bilan birga, o'zbek she'riyatining jahon adabiy tafakkuri bilan mushtarakligini ham ko'rsatadi. Bu esa jadid adabiyotida intertekstuallikning yangi bosqichi shakllanganligini tasdiqlaydi. Agar Sidqiy Xondayliqiy tarixiy antroponimlar vositasida ko'proq didaktik va axloqiy g'oyalarni ilgari surgan bo'lsa, Usmon Nosir ularni inson ruhiyati, erkinlik falsafasi va estetik idealni ifodalovchi poetik vosita darajasiga olib chiqadi.

Cho'lpon va Abdulla Avloniy lirikasida antonomaziya. Cho'lpon lirikasida tarixiy antroponimlarning

[1] https://tafakkur.net/nil-va-rim/usmon-nosir.uz
[2] https://tafakkur.net/monolog/usmon-nosir.uz

qo'llanish tamoyili o'ziga xos lingvopoetik xususiyatlarga ega. Shoir tarixiy shaxs nomlarini ko'proq milliy ozodlik g'oyasi, ma'rifatparvarlik va inson erkinligi konseptlari bilan bog'laydi. Uning she'riyatida *Majnun* obrazi alohida semantik transformatsiya bilan berilgan. Mumtoz adabiyotda ishq timsoli sifatida shakllangan mazkur obraz jadid lirikasida Vatanga, millatga va ozodlik g'oyasiga sadoqat konsepti bilan boyitiladi. *"Faqat Majnun bo'lib elni suyamen"*[1] misrasida Majnun shaxsiy muhabbat emas, balki xalq muhabbati va milliy fidoyilik ramziga aylanadi. Demak, antonomaziya orqali mavjud madaniy stereotip yangi tarixiy sharoitga mos ravishda qayta talqin qilinadi. Azroil antroponimi ham kuchli ekspressiv vosita sifatida xizmat qiladi. Diniy tasavvurlarda jon oluvchi farishta sifatida qaraladigan Azroil obrazi shoir talqinida zulm va istibdodning muqarrar oqibatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Natijada diniy antroponim tarixiy voqelikni baholash vositasiga aylanadi. Bu antonomaziyaning baholovchi funksiyasi jadid lirikasida sezilarli darajada kuchayganligini ko'rsatadi.

Abdulla Avloniy she'riyatida esa tarixiy va diniy antroponimlarning qo'llanishi didaktik yo'nalishning ustuvorligi bilan ajralib turadi. Shoir Luqmon, Nuh, Sulaymon, Muhammad Mustafo[2] kabi nomlarni axloqiy barkamollik mezonlarini ifodalovchi lingvomadaniy birliklar sifatida qo'llaydi. Luqmon donishmandlikning, Nuh sabr va matonatning, Sulaymon esa hikmat va adolatning ramzi sifatida poetik matnning semantik markazini tashkil qiladi. Abdulla Avloniy mumtoz didaktik an'analarni davom ettirgan holda ularni jadid ma'rifatparvarligi ruhiga moslashtiradi. Natijada tarixiy nomlar zamonaviy jamiyatni tarbiyalash konsepsiyasining tarkibiy elementiga aylanadi. Bu antonomaziyaning pragmatik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid lirikasida tarixiy antroponimlar asosidagi antonomaziyalar ijodkorlarning individual uslubiga qarab turlicha poetik vazifa bajaradi. Sidqiy Xondayliqiy ularni asosan axloqiy va didaktik mazmun yaratishga yo'naltirgan bo'lsa, Usmon Nosir estetik va falsafiy tafakkurni ifodalash vositasiga aylantiradi. Cho'lpon milliy ozodlik g'oyasini poetiklashtiradi. Abdulla Avloniy esa ma'rifatparvarlik va komil inson konsepsiyasini shakllantirishda ulardan samarali foydalanadi. Jadid lirikasida antonomaziya faqat stilistik figura emas, balki murakkab kognitiv, lingvomadaniy va pragmatik mexanizm ekanligidir. Tarixiy antroponimlar poetik matnda milliy madaniy xotirani faollashtiruvchi, intertekstual bog'lanishlarni yuzaga keltiruvchi hamda muallifning individual konseptual olamini ifodalovchi universal lingvopoetik vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu xususiyatlar jadid lirikasi poetikasida antonomaziyaning funksional-semantik salohiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Rezyume: Ushbu maqolada jadid lirikasida tarixiy antroponimlar asosida shakllangan antonomaziyalarning leksik-semantik, lingvopoetik va konseptual xususiyatlari tahlil qilingan. Tarixiy antroponimlarning pretsedent birlik sifatidagi tabiati, ularning badiiy matnda bajaradigan semantik va uslubiy vazifalari yoritilgan. Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, Cho'lpon va Abdulla Avloniy ijodida antonomaziyalarning lingvomadaniy hamda intertekstual imkoniyatlari tadqiq etilgan. Antonomaziya murakkab kognitiv-lingvokulturologik mexanizm sifatida baholangan.

Резюме: В статье анализируются лексико-семантические, лингвопоэтические и концептуальные особенности антономазий, образованных на основе исторических антропонимов в джадидской лирике. Освещается природа исторических антропонимов как прецедентных единиц, а также их семантические и стилистические функции в художественном тексте. Исследуются лингвокультурологические и интертекстуальные возможности антономазий в творчестве Сидкия Хандайлики, Усмана Насыра, Чулпана и Абдуллы Авлони. Антономазия оценивается как сложный когнитивно-лингвокультурологический механизм.

Resume: This article analyzes the lexical-semantic, linguopoetic and conceptual features of antonomasias formed from historical anthroponyms in Jadid poetry. It examines the nature of historical anthroponyms as precedent units and reveals their semantic and stylistic functions in literary texts. The linguocultural and intertextual potential of antonomasias in the works of Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, Cho'lpon and Abdulla Avloniy is investigated. Antonomasia is evaluated as a complex cognitive-linguocultural mechanism.

[1] Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 640 b.
[2] Авлоний А. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом. – Тошкент: «Мактаб» китобхонаси, 1913.